

**O'QUVCHILARGA OILAVIY TADBIRKORLIK
KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA ISHBILARMONLIK
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH (7-9-sinflar misolida)**

*Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti, Pedagogika yo'nalishi 2-
kurs magistranti **Abdugafurova Dinora G'ulom qizi***

Email: dinoraabdugafurova6@gmail.com

UDK:[373.3.373.5]:330.101.541

<https://orcid.org/0009-0006-7733-3526>

Annotatsiya: *Maqolada o'quvchilarda oilaviy tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda ishbilarmonlik mexanizmlarini tarbiyalashning amaliy shakllari, usullari va vositalari ko'rsatib o'tilgan. Maktab ta'limida iqtisodiy bilimlarni erta yoshdan boshlab shakllantirish, o'quvchilarda moliyaviy savodxonlik, ijodkorlik, tashabbuskorlik va mehnatsevarlik kabi xislatlarni rivojlantirish kerakligi isbotlab berilgan. Shuningdek, mini-loyihalar, ekskursiyalar, treninglar va simulyatsion o'yinlar orqali ishbilarmonlikni rivojlantirishga qaratilgan samarali metodlar tahlil qilib o'tilgan. Mazkur maqolada o'quvchilarni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlashda amaliy yordam beruvchi tavsiyalarni qamrab olgan.*

Kalit so'zlar: *oilaviy tadbirkorlik, ishbilarmonlik ko'nikmalari, o'quvchilar tarbiyasi, amaliy usullar, metodlar, mini-loyihalar, moliyaviy savodxonlik, tadbirkorlik ta'limi, mehnat tarbiyasi, iqtisodiy bilimlar.*

KIRISH

XXI asr- bilim, texnologiya va iqtisodiyot asri bo'lib, bunda har bir fuqaro o'z sohasi bo'yicha bilimli va tajribali, moliyaviy savodxon, tashabbuskor va innovatsion fikrlovchi bo'lishini davr talabi bo'lib boryapti. Ayniqsa, jamiyat taraqqiyotida tadbirkorlik va ishbilarmonlik muhim o'rinlarni

egallab turibdi. Tadbirkorlik- bu daromad olish yo'li bo'libgina qolmay, balki o'quvchida mustaqil qaror qabul qilish, tavakkalchilik, strategik fikrlash, resurslarni boshqarish kabi muhim ko'nikmalarni shakllantiruvchi hayotiy tajriba maktabidir.

Maktab yoshidagi o'quvchilarda yoshligidanoq oilaviy tadbirkorlikka oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ularda iqtisodiy tafakkur, moliyaviy savodxonlik, mehnatsevarlik, tejamkorlik, mas'uliyat va ishbilarmonlik madaniyatini tarbiyalash bugungi kunda dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Ayniqsa, 7- 9-sinf o'quvchilari aqliy, ijtimoiy va psixologik jihatdan rivojlanayotgan paytda o'z hayot yo'lini tanlashga yaqinlashayotgan bosqichda bo'lib, ularda turli kasb-hunar va iqtisodiy faoliyat turlari, jumladan, tadbirkorlik faoliyatiga qiziqish uyg'otish ayni muddaodir.

Oilaviy tadbirkorlik esa bolaga iqtisodiy hayotni tabiiy va qulay muhitda, ya'ni o'quvchining o'z oilasida o'rganish imkoniyatini beradi. Oila- bu nafaqat tarbiya maskani, balki kichik iqtisodiy birlashmadir. Farzandlar oilada oddiy mehnat jarayonlarida ishtirok etar ekan, ular asta-sekin mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni, mehnatga va pulga munosabatni, tejash va rejalashtirishni o'rganib boradilar.

ASOSIY QISM:

Bugungi kunda o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish ta'lim tizimidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiy fikrlash, moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik ko'nikmalarini erta yoshdan boshlab rivojlantirish zarurati kun sayin ortib bormoqda. 7-9-sinf o'quvchilari psixologik va aqliy jihatdan mustaqil fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, o'zini oqlagan risklarni baholashga qodir bo'lgan davrda turadi. Bu paytda ularning qiziqish doirasi kengayib, ijodiy va amaliy faoliyatga bo'lgan ehtiyoji ortadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, tadbirkorlik - bu iqtisodiy faoliyat turi va yana o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi hamda kelajakdagi kasb tanloviga asos bo'luvchi vosita sifatida qaralishi kerak. Ayniqsa, oilaviy tadbirkorlik orqali bu ko'nikmalarni rivojlantirish o'quvchilar uchun tanish, qulay va motivatsion jihatdan yaqin muhitni yaratib beradi.

Tadbirkorlik faoliyati inson shaxsida bir qator ijobiy fazilatlarni tarbiyalaydi. Shuningdek, ishbilarmonlik mexanizmlarining tarbiyaviy jihatlarini quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

- **mas'uliyat va mustaqillik** – o'quvchilarda o'z biznesini boshlash, qaror qabul qilish va javobgarlikni his qilish orqali shakllanadi;

- **innovatsion fikrlash** esa yangi g'oyalarni ilgari surish, muammolarga noodatiy yondashuvlarni ishlab chiqish orqali shakllanadi;

- **rejalashtirish va strategik fikrlash** orqali faoliyatni bosqichma-bosqich amalga oshirish, maqsadlarni belgilash, yo'l xaritalarini tuzish kabi xislatlar tarbiyalanadi;

- **muloqot va jamoaviy ish** esa mijozlar, sheriklar yoki jamoa bilan samarali ishlash malakasini shakllantiradi;

- **moliyaviy savodxonlik** orqali daromad va xarajatni to'g'ri hisoblashni, tejamkorlik, sarmoya va risklarni tushunish kabi tushunchalarni egallashga yordam beradi.

Bu xislatlarni egallash har qanday kasbda va hayotning turli sohalarida samarali bo'ladi. Ayniqsa, 7- 9-sinf o'quvchilarida bu fazilatlarni rivojlantirish ularning kelajakdagi shaxsiy muvaffaqiyatiga zamin yaratadi.

O'quvchilarda oilaviy tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda samarali ta'lim texnologiyalari, amaliy mashg'ulotlar va innovatsion yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Maktab ta'limida foydalansa bo'ladigan bir nechta amaliy shakllarni ko'rib o'tamiz. Ular quyidagicha:

- mini-loyihalar orqali o'quvchilar kichik guruhlarda “oilaviy biznes” modelini yaratadilar. Misol uchun: uyda tayyorlangan qandolat mahsulotlari, qo'l mehnati buyumlari, xizmat ko'rsatish turlari va h.k;

- tadbirkorlik haftaligi kabi haftalik maxsus darslar, treninglar, uchrashuvlar orqali o'quvchilarni ishbilarmonlik muhitiga olib kirish;

- “Bozor kuni” tadbirini uyushtirish orqali o'quvchilar o'z mahsulotlarini maktab ichida namoyish etib, haqiqiy tadbirkorlik tajribasini egallaydilar;

- ota-onalar ishtirokidagi mahorat darslarini o'tkazish orqali haqiqiy oilaviy tadbirkorlar bilan muloqot tashkil qilib, ularning faoliyatini o'rganish.

Ta'lim usullari - o'quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular o'quvchiga nazariy bilim beribgina qolmay, amaliy ko'nikma, ijtimoiy mas'uliyat va hayotiy muammolarni hal qilish qobiliyatini ham o'stiradi. Masalan:

- rolli o'yinlar orqali o'quvchilar “tadbirkor”, “investor”, “iste'molchi”, “mijoz” rollarida chiqish qilib, iqtisodiy vaziyatlarni o'rganadi;

- keys-stadi (Case-study) metodi qo'llab muammoli holatlar asosida tahlil qilishni, yechim topish va qaror qabul qilishni o'rganadi;

- ijodiy topshiriqlar esa biznes-reja tuzish, reklama roliklari yaratish, logotip yasash kabi topshiriqlar orqali ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;

- munozarali darslarda “Qanday biznes foydaliroq?”, “Tadbirkor bo'lish shartmi?”, “avvalo, nimadan boshlash zarur” kabi savollar asosida erkin fikr almashinuvini uyushtirish.

Ta'lim vositalari - bu o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda yordam beradigan turli materiallar, jihozlar va texnik qurilmalardir. Ular o'qituvchi faoliyatini yengillashtiradi va o'quvchi uchun darsni qiziqarli, oson va eng muhimi tushunarli tarzda bo'lishini ta'minlaydi. Jumladan:

- interaktiv elektron platformalar – moliyaviy savodxonlikni o'rgatuvchi ilovalar Masalan: Biznes simulyatorlar, “Biznes o'yinlar” kabi;
- model vositalar – o'yinchoq pullar, mablag'lar taqsimoti jadvallari, daromad-foyda kartochokalari;
- ko'rgazmali vositalar – diagramma, grafik, poster, slaydlar orqali biznes jarayonlarini tushuntirish;
- real namunalar – mahalliy tadbirkorlar faoliyatini kuzatish, oiladagi iqtisodiy faoliyatda bevosita ishtirok etish.

Maktab va oila hamkorligi

Oilaviy tadbirkorlikni o'rgatishda maktab va oila o'rtasida uzviy hamkorlik bo'lishi juda muhim hisoblanadi. Maktab- o'quvchilarda nazariy bilimlarni shakllantirsa, oilada esa ularni amalda qo'llash imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, ota-onalar bolalarni oila budjetini rejalashtirishga jalb qilishi, ularni kichik mas'uliyatli topshiriqlarga jalb etishi ya'ni, mahsulotlar ro'yxatini tuzishni, xizmat yoki mahsulot sotishni sinab ko'rish kabi real ishbilarmonlik muhitini yaratadi.

Xulosa.

O'quvchilarda oilaviy tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish - iqtisodiy bilim va amaliy ko'nikmalarni, ularning shaxsiy rivojlanishiga ham sabab bo'ladi. Maktab ta'limida ishbilarmonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy shakllar, usullar va vositalar orqali yoshlarimiz kelajakda mustaqil va mas'uliyatli tadbirkor bo'lib chiqadilar. Shunday qilib, yoshlarimiz o'z oilasiga va jamiyat taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Tojiboyev N.Q., Juraev R. — Pedagogika asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. Xolmatov E. — Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2019.

3.Kuvandiqov Sh.O., Xizmat ko'rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlik.Monografiya.Samarqand-2023.

4.H.Hamrayev.Tadbirkorlik asoslari.O'quv qo'llanma.Toshkent-2010.